**CONCLUSION:** In general, hydroelectric facilities play an important role in the global energy landscape, providing clean, renewable and reliable electricity, while contributing to economic development and climate change mitigation. However, it is important to carefully consider and address the environmental, social and economic impacts associated with hydropower projects to ensure their sustainability and maximize their benefits.

#### REFERENCES:

1. Badalov.A.S, Uralov.B.R, Zenkova.V.A, Shaazizov F.Sh. “Gidroelektrostansiylar”
2. O‘.Husanxodjayev, I.Ahmedov, X.Fayziyev, Sh.Boymatov “Gidrotexnika qurilishini tashkil etish va rejallashtirish”

**UDK:796.01****YOSH TRIATLONCHI QIZLARNING UMUMIY JISMONIY  
TAYYORGARLIK DARAJASINI OSHIRISH****Karimov Ismoiljon Ibrohimjonovich**

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori dotsent

**Jumaboyeva Zulayxo Baxtiyor qizi**

TR 51-21 guruh talabasi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,

O‘zbekiston, Chirchiq sh.

E-mail: [zulayxo01@gmail.com](mailto:zulayxo01@gmail.com)

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada o‘quv-mashg‘ulot jarayonida yosh sportchi qizlarning umumiyligi jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish maqsadida foydalaniladigan mashqlar majmuasini qo‘llagan holda yosh triatlonchi qizlarning umumiyligi tayyorgarlik darajasi ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida pedagogik tajribaning dastlabki yarim yilikdan keyin olingan natijalari va ularning tahlili keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* yosh triatlonchi qizlar, o‘quv-mashg‘ulotlari, mashqlar majmuasi, umumiyligi tayyorgarlik, statistik tahlil.

**УДК:796.01****ПОВЫШЕНИЕ ОБЩЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ  
ЮНЫХ ТРИАТЛЕТОК****Каримов Исмаилжон Ибрагимжонович**

доцент, доктор философских наук

**Жумабоева Зулайхо Бахтиёр қизи**

TR 51-21 группа студентов

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта,

Узбекистан, Чирчик ш.

E-mail: [zulayxo01@gmail.com](mailto:zulayxo01@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье представлены результаты, полученные после первого полугодия педагогического стажа и их анализ с целью повышения показателей уровня общей физической подготовленности юных спортсменок-триатлонисток с помощью комплекса упражнений, применяемого в тренировочном процессе для повышения общей физической подготовленности. уровень юных спортсменок.

**Ключевые слова:** детско-юношеский гандбол, учебно-тренировочные занятия, комплексная тренировка, общая физическая подготовка, статистический анализ.

**UDK: 796.01**

## INCREASING THE GENERAL PHYSICAL FITNESS LEVEL OF YOUNG GIRLS TRIATHLETES

**Karimov Ismailjon Ibrahimjonovich**

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

**Jumaboyeva Zulayxo Baxtiyor qizi**

TR 51-21 group student

Uzbekistan State University of Physical Education and Sports,

Uzbekistan, Chirchik sh.

E-mail: [zulayxo01@gmail.com](mailto:zulayxo01@gmail.com)

**Annotation:** This article presents the results obtained after the first six months of the pedagogical experience and their analysis in order to increase the indicators of the general physical fitness level of young triathlete girls using a set of exercises used in the training process to increase the general physical fitness level of young female athletes.

**Key words:** youth handball, training sessions, complex training, general physical training, statistical analysis.

**Dolzarbligi:** Sport amaliyot jarayonlarida, jumladan triatlon sport turi bilan shug‘ullanuvchi yosh qizlarning harakatlanish ampletudasining asosi hisoblangan umumiyl jismoniy tayyorgarlik malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish yoki takomillashtirib borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va shu orqali umumiyl jismoniy sifatlarning yuqori ko‘rsatkichlariga erishish murabbiy va sportchining hamkorlikdagi faoliyatining eng asosiy va muhim maqsadi hisoblanadi. Ushbu jarayonda harakatlanish malaka va ko‘nikmalari bilan birga va bir vaqtin o‘zida sportchining umumiyl jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga ham erishish juda muhim asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Sport mashg‘ulotlari bilan muntazam ravishga shug‘ullanib kelayotgan sportchilarning fungsional holatlari tajriba davomida aniqlanganda sportga endi kirib kelayorgan yosh triatlonchilarning fungsional holatlariga nisbatan birmuncha barqaror ekanligi aniqlangan. Sportga kirib kelgan yoshlarning dast avval umumiyl jismoniy tayyorgarlik bosqichida umum jismoniy ko‘rsatkichlarini yahshilash va maxsu jismoniy harakat malakalarini rivojlantirish ishlarining olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi degan fikrdamiz. Yosha triatlonchi qizlarning umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish hamda aynan shunday fikr-mulohazalarni bildirish mumkin va bu mavzuning dolzarbligini anglatadi.

**Tadqiqot maqsadlari:** yosh triatlonchi qizlarning umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishning samarali vosita va usullarini aniqlash.

**Tadqiqot vazifalari:** yosh triatlonchi qizlarning umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar majmuasini aniqlash; yosh triatlonchi qizlarning umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan jismoniy mashqlar majmuasining samaradorligini tajriba yo‘li bilan o‘rganish.

**Tadqiqot ob’ekti** – triatlon bo‘yicha o‘quv-trenirovkalar jarayonida shug‘ullanayotgan qiz bolalar.

**Tadqiqot predmeti** – yosh triatlonchi qizlarning mashg‘ulotlar davomida umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish vosita va usullari.

**Tadqiqot usullari** - pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba va matematik statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tajribani tashkil qilinishi.** Tajriba boshida yosh triatlonchi qizlardan iborat nazorat (NG, n=15) va tajriba (TG, n=15) guruhlari tashkil etildi. NGda mashg‘ulotlar an’anaviy, ya’ni o‘quv rejasি bo‘yicha olib borildi, TGda esa o‘quv rejasidagi ayrim vositalar o‘rniga asosiy diqqat-e’tibor ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarini tahlili asosida tanlab olingan umumiyl jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlardan foydalanildi.

Yarim yil davomida o‘tkazilgan mashg‘ulotlardan so‘ng NG va TG sinaluvchi sportchilarida tajriba boshida o‘tkazilgan umumiyl jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini xarakterlaydigan testlar bo‘yicha natijalar qayta (retest) natijalari qayd qilindi.

**Tadqiqot natijalari va tahlili:** Davlatimiz tomonidan sportga katta e’tibor qaratilib, aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan ijobiy yondashuvni yanada oshirishga harakat qilinmoqda. Maktab o‘quvchilarining turli sport seksiyalarda qatnashishi uchun bolalar va o‘smirlar sport maktablari barpo etilmoqda, qariyalarning turli sport klublariga qatnashari uchun turli xil imtiyozlar berilmoqda. Shundan kelib chiqib, davlatimiz tomonidan jismoniy tarbiya va sportga munosib e’tibor qaratilib, har bir yoshdagи kishilarga mas’uliyat bilan yondashilmoxda. Biroq, bu butun aholining jismoniy faolligini oshirish uchun etarli degani emas, buning uchun avvalo, odamning o‘zi imkon qadar jismoniy tarbiya va badan tarbiya bilan shug‘ullanishga harakat qilishlari lozimdir.

Shu o‘rinda yosh triatlonchi qizlarning umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajalarini rivojlantirish va yanada takomillashtirish maqsadida nazorat sinov meyorlari o‘tkazildi. Amalga oshirilgan tadqiqot muobaynida tajriba boshida va tajriba so‘ngida NG va TG sinaluvchilaridan olingan natijalar, ularning statistik xarakteristikalarini bo‘yicha ma’lumotlar jadvalda keltirilgan.

**1-jadval.**

**Yosh triatlonchi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlash  
nazorat sinov meyorlari.**

<b>Test</b>	<b>Guruuh</b>	<b>Tajriba boshida</b>		<b>Tajriba oxirida</b>	
		$\bar{X}$	V%	$\bar{X}$	V%
30 metr qisqa masofaga yugurish (s.)	NG	7,27±1,24	17,06	6,94±1,16	16,71
	TG	7,44±1,25	16,80	6,75±1,09	16,15
Massasi 500 g. bo‘lgan to‘ldirma to‘pni uloqtirish (m.)	NG	9,04±1,63	18,03	9,55±1,71	17,91
	TG	8,77±1,64	18,70	9,79±1,72	17,57
3x10 m. masofaga mokisimon yugurish (s.)	NG	8,83±1,54	17,44	8,31±1,42	17,09
	TG	9,14±1,63	17,83	8,05±1,39	17,27
Chim ustida oldinga va ortga umbaloq oshish (marta)	NG	4,12±0,63	15,29	4,35±0,65	14,94
	TG	4,38±0,69	15,75	4,9±0,73	14,90
Turgan joydan uzunlikka sakrash	NG	128,94±22,46	17,42	136,56±23,24	17,02
	TG	126,27±22,39	17,73	141,63±23,83	16,83
Skameykaga qo‘llar bilan tayangan holda qo‘llarni bukib yoyish	NG	8,13±1,34	16,48	8,63±1,39	16,11
	TG	9,72±1,55	15,95	10,83±1,65	15,24

*Eslatma – \*P<0,05; \*\*P<0,01; \*\*\*P<0,001*

Yosh triatlonchi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha pedagogik tajribaning oraliq (yarim yillik) natijalarini tahlili quyidagicha mazmunda kaks ettirish imkonini berdi: dastlabki nazorat sinovi orqali (30 m qisqa masofaga yugurish) NG sportchilarining o‘rganilgan testlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich tajriba boshida  $7,27\pm1,24$  ga teng bo‘lgan bo‘lsa tajriba oxiriga kelib ushbu natijalar  $6,94\pm1,16$  ni tashkil etdi. Tajriba davomida 30 m qisqa masofaga yugurish natijalarining eng katta nisbiy o‘sishi 6,15 % ni, eng kichigi esa 4,54 % ni, TG da mashg‘uloit olib borishayotgan yosh triatlonchi qizlarning umumiy jismoniy

tayyorgarlik natijalarida tajribadan oldingi ko‘rsatkichlar  $7,44\pm1,25$  ga teng bo‘lgan bo‘lsa tajriba oxiriga kelib ushbu natijalar  $6,75\pm1,09$  ga qisqargani aniqlandi. Bir biriga mos ko‘rsatkichlar 13,05 % ni va 9,27 % ni tashkil etishi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Yosh triatlonchi qizlarning kuch sifatini rivojlantirish maqsadida umum rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanildi. Mazkur sifat ko‘rsatkichini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan nazorat sinovi 500g og“irlikdagi tgldirma to‘pni ma’lum masofaga uloqtirish amaliyotidan foydalanildi. Olingan natijalar nazorat guruhida tajriba boshida  $9,04\pm1,63$  ga teng ekanligi aniqlandi. Tajriba oxirida qayd etilgan ko‘rsatkich esa  $9,55\pm1,71$  ga teng bo‘ldi. Ushbu nazorat sinov amaliyoti tajriba guruhida ham amalga oshirilganda tajriba boshida  $8,77\pm1,64$  ga, tajriba oxiriga kelib  $9,79\pm1,72$  ga oshganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan ko‘rinib turibdiki nazorat guruhi sportchilariga qaraganda tajriba guruhi sportchilarining qayd etgan natijalarida ijobiy tarafga o“sish borligi aniqlandi (1-jadvalga qarang).

Navbatdagi nazorat sinovimiz  $3\times10$  m qisqa masofaga mokisimon yugurish amaliyot orqali amalga oshirildi. Natijalarga ko‘ra nazorat guruhi shug“ullanuvchilarida tajriba boshidagi ko‘rsatkichlari  $8,83\pm1,54$  ni tashkil etgan bo‘lsa tajriba oxiriga kelib  $8,31\pm1,42$  ni tashkil etdi. Tajriba guruhi ishtirokchilarining tezkorlik sifati natijalari tajriba boshida olingan nazorat sinovida  $9,14\pm1,63$  ga teng bo‘ldi. Natjalarning qiyosiy tahlili qilganda tajriba oxirida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki yosh triatlochi qizlarning natijalari  $8,05\pm1,39$  ga o“zgargani aniqlandi. Natjalarning ishonchlilik darajasi  $P<0,05$  ga teng ekanligi aniqlandi.

Yosh triatlonchi qizlarning muozanat koordinatsiyasini aniqlash maqsadida chim ustida oldinga va irtga unbaloq oshish nazorat mashqi bajarildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki nazorat guruhi qizlarida muvozanat koordinatsiyasi ko‘rsatkichlari tajriba boshida olingan natjalarga ko‘ra  $4,12\pm0,63$  ga teng ekanligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichning samaradorlilagini aniqlash maqsadida tajriba so‘ngida qayta olinganda ushbu ko‘rsatkich  $4,35\pm0,65$  ekanligi namoyon bo‘ldi. Nazorat guruhi ishtirokchilarining qayd etilgan natijalari variatsiyasi tajriba boshida 15,29% ga, tajriba oxirida esa 14,94% ni tashkil etdi. Mazkur muvozanat koordinatsiyasi tajriba guruhida

ham aniqlanganda tajriba boshidagi natija  $4,38 \pm 0,69$  ni tashkil etdi. Tajriba so“ngiga kelib muvozanat koordinatsiyasi  $4,9 \pm 0,73$  ga teng bo‘lgani kuzatildi. Ko‘rinib turganidek nazorat va tajriba guruhlari orasidagi natijalar deyarli bir biriga yaqin ekanligi ko‘rinib turipdi.

Turgan joydan uzunlikka sakrash amaliy nazorat sinovi yosh triatlonchi qizlarning oyoq kuchini aniqlashga hizmat qiladi. Mazkur nazorat sinovi orqali olingan natijalar nazorat guruhida yil boshida  $128,94 \pm 22,46$  ni tashkil etgan bo‘lsa tajriba guruhi sportchilarida  $126,27 \pm 22,39$  ga teng bo‘ldi. Ushbu natijalar har ikkala guruhda tajriba oxiriga kelib qayta olinganda nazorat guruhida  $136,56 \pm 23,24$  ni, tajriba guruhida  $141,63 \pm 23,83$  ni tashkil qildi. Har ikkala natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak shunday xulosaga kelishimiz mumkunki nazorat guruhi ishtirokchilarining natijalariga qaraganda tajriba guruhi sportchilarining qayd etgan ko‘rsatkichlari balad ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanib turipdi (1-jadvalga qarang).

Kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida yosh triatlonchi qizlarimizdan so‘ngi nazorat sinov meyori olindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki nazorat guruhi sportchi qizlari tjariba boshida  $8,13 \pm 1,34$  lik natijani, tajriba guruhi qizlari esa  $9,72 \pm 1,55$  lik natijalni qayd etishdi. Tajorba oxirida olingan natijalardagi ko‘rsatkichlar nazorat guruhida  $8,63 \pm 1,39$  ni, tajriba guruhida  $10,83 \pm 1,65$  martalik natijani guvohi bo‘ldik. Natijalarning o‘zaro solishtirilishi so‘ngida nazorat guruhida deyarli o‘zgarish sezilarsiz ekanligi, takriba guruhida esa o‘zgarish samarali yakunlangani aniqlandi. Ikkala ko‘rsatkichlarni ishonchlilik darajasi esa  $P < 0,05$  ga teng deb topildi.

Shuning bilan birga, tajriba davomida o‘rganilgan barcha sinov testlari bo‘yicha NG sportchilari ko‘rsatgan natijalaring o‘rtacha nisbiy o‘sishi 5,51 % ga va TG dagi mos ko‘rsatkich 11,66 % ga teng ekanligi aniqlandi va bu NG dagi natijalarga nisbatan ikki baravardan ham ko‘p (2,115 marta katta) ijobjiy o‘zgarganligini ko‘rsatdi, bu esa TG da qo‘llangan umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan vosita va usullarning samaradorligini isboti hisoblanadi va yosh triatlonchi qizlarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun trenirovka mashg‘ulotlarida qo‘llansa yuqori samara beradi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki jismoniy tarbiya va sportni ko'p qirrali ijtimoiy hodisa desak bo'ladi. Bu, birinchi navbatda, inson tarbiyasiga ta'sir qilish, shuningdek, ko'pgina kasalliklarning oldini olish va profilaktika vazifasini bajarish bilan bevosita bog'liqdir. Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish insonning funktsional imkoniyatlarini, organizmdagi metabolik jarayonlarning faolligini, metabolizm va energiyani barqarorlashishiga yordam beradi. Aks holda, kam harakatlilikka asoslangan turmush tarzi mushaklar atrofiyasiga, suyak kuchining pasayishiga, markaziy asab, nafas olish, yurak-qon tomir va boshqa tizimlarning funktsional holatining yomonlashishiga olib keladi. Tananing tetikligi va hayotiy zarur bo'lgan funksiyaarning sezilarli darajada yomonlashishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa:** Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, butun dunyoda jismoniy tarbiya va sport bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda va kundan-kunga ko'proq odamlar sport tadbirlariga qo'shilib, ularda qatnashishga harakat qilmoqdalar. Ayni paytda mamlakatimizda ham sog'lom turmush tarziga faol qiziqish shakllantirilmoqda. Darhaqiqat, O'zbekistonda fuqarolarning iqtisodiy farovonligining asosi sifatida fuqarolar sog'lig'i va uning e'zozlanishiga talab kuchaymoqda. Milliy jismoniy tarbiya va sport harakatining eng yaxshi an'analarini saqlab qolish va tiklash, aholining barcha qatlamlarini faol jismoniy tarbiya va sportga maksimal darajada jalb etishga qaratilgan yangi yuqori samarali jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport texnologiyalarini izlashni davom ettirish zarur.

Yosh triatlonchi qizlarning umum jismoniy tayyorgarlik darajalarini olib borilgan tadqiqot amaliyotimiz davomidagi ko'rsatkichlari qay darajada ekanligining xulosasini qiladigan bo'lsak tajriba davomida o'rganilgan sinov testlari bo'yicha NG sportchilari ko'rsatgan natijalarning o'rtacha nisbiy o'sishi 5,51 % ga va TG dagi mos ko'rsatkich 11,66 % ga teng bo'ldi va bu NG dagi ko'rsatkichga nisbatan 2,115 baravar ko'p ijobiy o'zgarganligi TG da qo'llangan umumiyl jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo'naltirilgan jismoniy mashqlar majmuasining samaradorligini isboti hisoblanadi. Nisbatan qayd etilgan natijalarning qiyosiy taxlili qilnganda yosh triatlonchi qizlarning umumiyl jismoniy tayyorgarligi samarali ravishda rivojlanib kelayotganligi aniqlandi.

Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki triathlon sport turida harakat uslublari va qoidalari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va sport musobaqalarida raqobatning oshib borishi va amaliy mashg‘ulotlarni ta’siri sifatida eng yuksak natijalarga erishish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Yosh triatlonchi qizlarning harakat uslublarini takomillashtirish samaradorligiga erishishda faollikni oshirish uchun muhim bo‘lgan individual yondoshish va maxsus mashqlarni qo‘llash orqali erishiladi.

Yosh triatlonchi qizlarning qayd etgan natijalari yuzasidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun biz tomonimizda kerakli tavsiya va ko‘rsatmalar ishlab chiqildi hamda murabbiylarga taqdim etildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. PF-4947-son. Toshkent sh. 2017 yil 7 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari. PF-5924-son. Toshkent sh. 2020 yil 24 yanvar.
3. Oliy mahorat sport maktablarini tashkil etish. PQ-2438-son. Toshkent sh. 2015-yil 23-noyabr.
4. Дж.Кэллос. Железный человек есть в каждом. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2011 (пер.: Миронова П.).
5. И.Сысоев и О.Кулиненков. Триатлон. Олимпийская дистанция. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2012.
6. Ш.Таорлина. Секреты быстрого плавания для пловцов и триатлетов. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2013 (пер.: Миронова П.).
7. А. и Дж.Браунли. Плыть, ехать, бежать. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2014 (пер.: Миронова П.).
8. В.Рябушкин. Железный человек. - М. «Самиздат»2015.

9. К.Велингтон. Жизнь без границ. - М. «МИФ»2015.
  10. М.Клойон, Т.Джекобсон. Анатомия триатлона. - М. «Папурри». 2016 (пер.: Борич С.).
  11. Р.Ролл. Ультра. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2016 (пер.: Миронова П.).
  12. Х.Кёрнер и А.Чейза. Руководство ультрамарафонца. - М. Издательство: « Манн, Иванов и Фербер». 2016.
  13. Ярошенко Е. Г. (ред.). Программа спортивной подготовки по триатлону. Краснодар. 2017.
- 406
14. Джо Фрил. Библия триатлета. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2018 (пер.: Миронова П.).
  15. Джо Фрил. Библия велосипедиста. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2018 (пер.: Миронова П.).
  16. М.Райан. Питание в спорте. - М. Издательство: «Манн, Иванов и Фербер». 2018 (пер.: Миронова П.).
  17. Задоров В.М. и Раstryгин В.В. Типовая учебная программа по триатлону. -Т.: “Ilmiy texnika axboroti- press mshriyoti”. 2019.

## FIBONACHCHI SONLARI VA MATRITSALAR ORASIDAGI MUNOSABATLAR

**Noriyeva Aziza Jasur qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali,  
Amaliy matematika kafedrasi assistent.

[noriyevaaziza@gmail.com](mailto:noriyevaaziza@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Fibonachchi sonlari va matritsalar orasidagi munosabatlar keltirilgan bo‘lib, maqoladan nafaqat algebra va sonlar nazariya, matematik mantiq balki matematik analiz faniga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** *Fibonachchi sonlari, matritsa, ko‘paytma, determinant, oltin kesim.*

## **FIBONACCI NUMBERS AND MATRICES**

### **ABSTRACT**

*Fibonacci numbers and matrices are presented in this article, and the article can be used not only by students interested in algebra and number theory, mathematical logic, mathematical analysis.*

**Keywords:** *Fibonacci numbers, matrix, multiplication, determinant, golden section.*

### **KIRISH**

Ma’lumki,  $u_1 = u_2 = 1$  bo‘lgan holda  $u_n = u_{n-1} + u_{n-2}$  ( $n \geq 3$ ) rekkurent tenglik vositasida aniqlangan sonlar ketma-ketligi Fibonachchi qatori, uning hadlari esa Fibonachchi sonlari deyiladi. Fibonachchi sonlari iborasini XIX asrda Eduard Lyuka tomonidan qiziqarli matematikaga bag‘ishlangan asarlarda uchratish mumkin.

Fibonachchining asl ismi Leonardo Pizan-skiy bo‘lib, u XII-XIII asrlarda Italiyaning Piza shahrida yashagan. Bonachchi Italiya va Jazoirda savdo-sotiq bilan shug‘ullangan. Leonardo boshlang‘ich ma’lumotni Jazoirda olgan bo‘lib, u o‘zining arab o‘qituvchilaridan hind pozitsion o‘nlik sanoq tizimi va nolni o‘rgangan edi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Fibonachchi “Liber abaci” ya’ni “Abak haqidagi kitob” - 1202 - yilda yozilgan bo‘lib, 1228 – yildagi qo‘lyozma nusxasi saqlangan bo‘lib, kitobda arifmetika va algebra bo‘yicha o‘z davrining deyarli barcha ma’lumotlarini bayon qilgan. Masalan, o‘sha kitobda hozir butun dunyoda ommabob hisoblangan arab raqamlari bayon qilingan. Qo‘lyozmaning 123-124 – sahifalarida uy quyonlarining ko‘payishi haqidagi quyidagi masala bayon qilingan. “Bir kishi bir juft quyonni ko‘paytirish maqsadida saqlagan bo‘lsin. Quyonning tabiat shundayki, har bir juft quyon bir oyda boshqa bir juft quyonni dunyoga keltiradi va yangi paydo bo‘lgan juft quyonlar ikkinchi oydan boshlab nasi bera boshlaydilar. Bir yildan so‘ng dastlabki juft quyonlarning ko‘payishi natijasida necha juft quyon vujudga keladi?” Ushbu masala aynan Fibonachchi sonlaridan tuzilgan jadval yordamida yechiladi. Demak, Fibonachchi sonlari va jadvallar ya’ni matritsalar yordamida bu kabi ko‘plab masalalar hal qilinadi. Quyida Fibonachchi sonlari va matritsalar orasidagi bir nechta natijalarni hosil qilamiz. [1]

## **NATIJALAR**

Fibonachchi sonlari va matritsalar o‘rtasida quyidagi tengliklar o‘rinli bo‘ladi.

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^n = \begin{pmatrix} u_{n+1} & u_n \\ u_n & u_{n-1} \end{pmatrix}$$

Ushbu tenglikni matematik induksiya yordamida isbotlaymiz.

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^1 = \begin{pmatrix} u_2 & u_1 \\ u_1 & u_0 \end{pmatrix}$$

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^2 = \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} u_3 & u_2 \\ u_2 & u_1 \end{pmatrix}$$

$$\begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^3 = \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^2 \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ 1 & 1 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 3 & 2 \\ 2 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} u_4 & u_3 \\ u_3 & u_2 \end{pmatrix}$$

...

$$\begin{aligned} \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^k &= \begin{pmatrix} u_{k+1} & u_k \\ u_k & u_{k-1} \end{pmatrix} \\ \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^{k+1} &= \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix}^k \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} u_{k+1} & u_k \\ u_k & u_{k-1} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} = \\ &= \begin{pmatrix} u_{k+1} + u_k & u_{k+1} \\ u_{k-1} + u_k & u_k \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} u_{k+2} & u_{k+1} \\ u_{k+1} & u_k \end{pmatrix}. \end{aligned}$$

Fibonachchi ketma-ketligi uchun quyidagi munosabatni isbotlaymiz.

$$\begin{pmatrix} u_{n+2} \\ u_{n+1} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} u_{n+1} \\ u_n \end{pmatrix}$$

Ushbu munosabatda tenglikning chap tarafidagi ifodadan o‘ng tarafidagi ifodani hosil qilamiz.

$$\begin{pmatrix} u_{n+2} \\ u_{n+1} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} u_{n+1} \times 1 + u_n \times 1 \\ u_{n+1} \times 1 + u_n \times 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 0 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} u_{n+1} \\ u_n \end{pmatrix}$$

## XULOSA

Qiziqarli matematikaga oid adabiyotlarda turli masalalarining yechimlarini Fibonachchi sonlari yordamida yechilishini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari Fibonachchi sonlari yordamida hamda oltin kesim masalalari, matriksalar va determinantlarga doir isbotlashlarni , ayrim rekurent munosabatlarni ham isbotlash va keltirib chiqarish mumkin. Bu esa matematika rivojlanishiga ichki ehtiyojlarni bartaraf etishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR

1. H.T.To‘rayev, I.Azizov. Matematik mmantiq va diskret matekatika. Toshkent. 2011.
2. Noriyeva A. O“ QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART MISOL VA MASALALARING AHAMIYATI //Журнал математики и информатики. – 2022. – Т. 2. – №. 1.
3. Meliyeva Mohira Zafar qizi, & Noriyeva Aziza. (2023). KO‘PHADLARNI HOSILA YORDAMIDA KO‘PAYTUVCHILARGA AJRATISH

- . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 20(3), 117–120. Retrieved from <http://newjournal.org/index.php/01/article/view/5708>
4. Нориева А. Koshi tengsizligi va uning qiziqarli masalalarga tadbirlari //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 361-364.
  5. Рабимкул А., Иброҳимов Ж. Б. ў., Пўлатов, БС and Нориева, АЖ қ. 2023. АРГУМЕНТЛАРНИ ГУРУХЛАРГА АЖРАТИБ БАҲОЛАШ УСУЛИДА КЎП ПАРАМЕТРЛИ НОЧИЗИҚЛИ РЕГРЕССИЯ ТЕНГЛАМАЛАРИНИ ҚУРИШ МАСАЛАЛАРИ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 174-178.
  6. Abdunazarov R. Issues of effective organization of practical classes and clubs in mathematics in technical universities. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. Current Issue: Volume 2022, Issue 3 (2022) Articles.
  7. Абдуназаров Р. О. численной решение обратной спектральной задачи для оператора Дирака //Журнал “Вопросы вычислительной и прикладной математики. – №. 95. – С. 10-20.
  8. Отакулов С., Мусаев А. О. Применение свойства квазидифференцируемости функций типа минимума и максимума к задаче негладкой оптимизации //Colloquium-journal. – Голопристанський міськрайонний центр знятості, 2020. – №. 12 (64). – С. 48-53.
  9. Мусаева А. О. Зарубежная система финансирования образовательных учреждений //Наука и новые технологии. – 2011. – №. 10. – С. 75-81.
  10. Мусаев А. О. Интеграция образовательных систем России и Дагестана XIX века //Известия Дагестанского государственного педагогического университета. Психолого-педагогические науки. – 2010. – №. 3. – С. 21-24.

## ANA TILIN OQITIW METODIKASI

**Sharapova Hurliman Zayirbek qızı**

**Sarsenbaeva Anar Onalbay qızı**

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámlekетlik pedagogikalıq instituti

Baslawish tálım fakulteti 2-v kurs talabası

### **ANNOTACIYA**

*Bul maqalada baslawish klasslarda ana tli oqitiw metodikasınan paydalaniw hám oqiwshılardıń ana tili sabaqlığına qızıǵıwshılıǵın arttıriw haqqında sóz etiledi.*

**Gilt sózler:** Ana tili, metod, oqiw, jaziw.

Metod tiykarınan grekshe,, métodos“ sózinen alıńǵan bolıp, „biliw hám izertlew manilerin,, ańlatadı.

Metodika qandayda bir jumıstı orınlaw, ámelge asırıw, ótew etiw metodlarinin, usıllarınıń jiyindisi yamasa o qitiw usılları haqqidagi ta ‘lim-tarbiya beriw metodlari, jolları hám quralları haqqındaǵı pan bolıp tabıladı. Baslangısh klaslarda ana tili oqitiw metodikası joqarı klaslarda ana tili oqitiw metodikasınıń dáslepki basqıshı bolıp, ol tekseretugin máselelerdi baslangısh klass oqiwshılarına nátiyjeni ámelde qollanıwin (muwapiq túrde) uyretedi. Usınıń menen birge, baslangısh klaslarda ana tili oqitiw metodikasınıń ayriqsha qásiyetleri bar. Baslangısh klaslarda ana tilin oqitiw grammatika, orfografiya hám oǵan baylanıslı halda sóylew ósiriw metodikasi emes, bálki xat-sawat úyretiw, klassta hám klasstan tısqarı oqıw metodikaların da óz ishine aladı. Usılardan kelip shıgıp, baslangısh klaslarda ana tili oqitiw metodikası páni tómendegi wazıypalardı atqaradı:

a) baslangısh klaslarda ana tili stuldıń onı, kólemi hám ámeldegi sistemasin, yaǵníy kurstiń (xat-sawat úyretiw, oqiw, gram matika, orfografiya, sóylew ósiriw hám t.b. ) programmasın belgilew hám tiykarlaw;

b) oqıw hám jazıwdan bilim hám kónlikpelerdiń qáliplesiwikornisinde da bul processda oqıwshılar dus keletuǵın qıyıñshiliqlardi úyreniw, qátelerdiń sebebin analiz qılıw, olardıń aldın alıw hám tuwrılawǵa járdem beretuǵın jumıs túrlerin islep shıǵıw;

d) ana tilinen beriletuǵın oqıw materialın oqıwshılar anıq tusinikli hám puqta ózlestiriwine, olarda alǵan bilimlerin ámeliyatda qollana alıwǵa hám oqıwshılardin ulıwma rawajlanıwına, yaǵníy olardin zeyni, yadın, bayqaǵıshlıǵın, yadda saqlawın, logikalıq oylawın, dóretiwshilik oylawın, sóylewin ósiriwge járdem beretuǵın metod hám qurallardı islep shıǵıw ;

e) ana tilin úyretiw menen baylanıslı halda mektepler aldına qoyılǵan tárbiyalıq wazıypalardı ámelge asırıw, oqıwshılarda etikalıq hám estetik sapalardı qáiplestiriw.

Ana tili oqıtıw metodikası tálimdiń túrli basqıshlarında oqıwshılardin bilim, konlikpe hám ilmiy tájriybelerin anıqlaydı, oqıwdıń tabısı hám kemshiliklerin belgileydi, sebebin izleydi, qáte hám kemshiliklerin saplastırıw usılların tabadı. Ana tili metodikası ta ‘lim sistemاسınıń barlıq basqıshların da ana tilin oqıtıwdıń izbe-izlik hám uzliksızligin támiyinleydi. Mektepge shekem tárbiya shólkeminde, tiykarlanıp, balardin sóylewin ósiriw názerde tutıladı. Baslangısh klassta oqıwshılar sóylewin ósiriwden tısqarı, ana tilinen elementar teoriyalıq túsiniklerdi ámeliy ózlestiriwléri da názerde tutıladı. Ana tili metodikasın ulıwma pedagogika menen bólew ásirese baslangısh klaslarda zárúrli bolıp tabıladı.

Kishi jasdaǵı oqıwshılardin jámáatlık hám jeke oqıw iskerliginde zárúr bolǵan kóp ádet hám kónlikpeleri ele tárbiyalanbaǵan boladı. Shólkemlik, jamaat jumisına tez kirisiw, itibar menen esitiw, oqıw hám jazıw, aktiv hám ózbetinshe islew, barlıq islerdi puqta hám sárenjam orınlaw sıyaqlı ko‘nikpe hám ádetler oqıtıwshı hám mektep úshek onidan ámelge asırı|adigan ulıwma pedagogik ilajlar sistemасıń qurayıdı. Tárbiyanıń sogan uqsas teoriyalıq hám ámeliy máslelelerin pedagogika islep baradi. Oqıtıwshı pedagogikalıq talaplardı ámelge asırsa ǵana, ana tiline tálım-tárbiya tárepinen payda keltiretuǵın etip uyretedi.

Ana tili oqıtıw metodikası qaraqalpaq tiliniń m a’lim bólegin teoriyalıq Tiykarin názerde tutadı, sol sebepli de fonetikalıqa hám fonologiya, leksikologiya hám

frazeologiya, so‘z soǵılıwı hám etimologiya, grammatika — morfologiya hám sintaksis, stilistika, sonıń menen birge, orfoepiya, grafika, orfografiya sıyaqlı pánler ana tili metodikasınıń zárúrli bolegi esaplanadı.

Ana tilin oqitiw metodikasın metodologiyaliq tiykarlar turaqli biliw teyoriyası bolip tabiladi. Bul pannin bas waziypasi oqiwshilardin tili, sozlik bayligin toliq ozlestirip aliwin ta, minleydi.

Oqiwshilarǵa ana tilin úyretiw, olardı tárbiyalaw hám hár tarepleme rawajlandırıw waziypasınan kelip shıǵıp, biliw teoriyası trykarlanıp, barlıq jaqın, óz-ara baylanıshı pánler usınıslarına tiykarlanıp, ana tili oqıtıl metodikası óz principlerin islep shıǵadı.

### *Paydalanylǵan ádebiyatlar:*

*1.Baslawish klaslarda ana tilin oqitiw metodikasi.*

*A.Pirniyazova,Q.pirniyazov,K.Bekniyazov Toshkent 2008*

## MAQOLLARDAGI LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLAR

Tursunova Navro‘zaxon Ergashboy qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

### ANNOTASIYA

*Maqolada o‘zbek xalq maqollarida qo‘llangan leksemalar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilingan. Xalq maqollaridagi milliy-madaniy xususiyatlar yoritilgan. Lingvokulturemalarning ekzotik leksika hamda muqobilsiz leksikaga munosabati tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvokulturologiya, muqobilsiz leksika, leksema, adresat, lisoniy, nolisoniy, sema, semema, semiotik tizim.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье с лингвокультурологической точки зрения анализируются некоторые лексемы, используемые в узбекских народных пословицах. Выделены национально-культурные особенности народных пословиц. Анализируется отношение Лингвокультуремы к экзотической лексике и безальтернативной лексике.*

**Ключевые слова:** *лингвокультурализм, безальтернативная лексика, лексема, адресат, языковая, неязыковая, сема, семема, семиотическая система.*

### ABSTRACT

*Article, some lexemes used in Uzbek folk proverbs are analyzed from a linguistic and cultural point of view. National-cultural features of folk proverbs are highlighted. The attitude of Lingvokulturema to exotic lexicon and non-alternative lexicon is analyzed.*

**Key words:** *linguo-culturalism, non-alternative lexicon, lexeme, addressee, linguistic, non-linguistic, seme, sememe, semiotic system.*

V.V. Vorobevning yozishicha, “Linvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir. Lingvokulturologiya fanining predmeti hisoblangan lingvokulturologik birlik bir paytning o‘zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Lingvokulturologik birliklardan ba’zilari muqobilsiz leksika va lakunalar hisoblanadi. “Har qanday til yoki dialektda boshqa tilga bir so‘z bilan tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar mavjud bo‘ladi. bunday so‘zlarga muqobilsiz leksika deyiladi. U ko‘pincha mahalliy xalqqa xos pul, masofa-uzunlik birliklari, ro‘zg‘or ashyolari va h.k. tushunchalarni anglatadigan so‘zlardan tarkib topadi”. [1;28 ]

L.S.Barxudarovning yozishicha:”Muqobilsiz leksika bir tildagi Ieksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobilga ega bo‘lmasligidir”. Bunday leksemalarni ko‘plab o‘zbek xalq maqollarida ko‘rish mumkin.

Yomon qizni boqquncha,  
*Do ‘ppingni* qoq. [2;138]  
 Uyurni shamol uchirsa,  
*Do ‘ppingni* osmonda ko‘r. [2;200]

Berilgan maqollarda ishtirok etgan “do‘ppi” leksemasi avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyimi semalaridan takrib topgan. [3;859] Ushbu ma’no qirralari bilan “do‘ppi” leksemasi madaniy semadir. “Madaniy sema – so‘zga nisbatan kichikroq va universalroq bo‘lgan semantik birliklar, semantik belgilar” [1;41] O‘zbek xalqining milliy bosh kiyimi bo‘lgani boisidan “do‘ppi” leksemasi muqobilsiz leksika namunasi hisoblanadi. Maqolda bu leksemaning qo‘llanishi mazmunning ta’sir kuchini oshirgan. Ma’lumki, do‘ppi qoqish jarayoni qandaydir holat yoki voqelikdan afsuslangan, attang qilingan o‘rinlarda yuz beradi. Do‘ppisini osmonga otmoq ya’ni juda xursand bo‘lmoq, quvonmoq [4;77] birikmasiga zid ravishda do‘ppi qoqmoq salbiy holatni aks ettiradi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, har bir o‘zbek oilasida farzand tarbiyasiga alohida ahamiyat beriladi, ayniqsa, qiz

bolaning sha'ni, qadr-qimmati, iffati muhim hisoblanadi. Biz o'zbeklarda qadimdan qiz bola biror noma'qul ishga qo'l ursa, uning nomiga dog' tushgan, gard yuqqan bo'ladi va bu garddan xalos bo'lish imkonsiz deya qaraladi. Biroq do'ppiga tekkan gard va changni yo'q qilish uchun uni qoqish kifoya. Shuning uchun yomon qizni boqquncha do'ppini qoqish afzalroq. Keyingi maqolni qo'llash bilan bir falokat har kimga turlichcha ta'sir o'tkazishi ayttilmoqda. Uyur – orasida bir ayg'iri bo'lgan biyalar to'dasi. [ ] Do'ppi esa yengil bosh kiyimi. Shamol har ikkisiga turlichcha ta'sir qilishi tabiiy, albatta bu tabiat qonunlariga ko'ra ham to'g'ri hodisa. Nasriy asarlar ustasi G'afur G'ulom o'zining "Shum bola" qissasida ushbu maqolning boshqa bir variantini qo'llagan ya'ni "Tuyani shamol uchirsa, Echkini osmonda ko'r." [2;200] Ikkinchchi Jahon urushi insonlar hayotiga har xil ta'sir qilganini aynan ushbu maqol orqali izohlab bergen. O'zbeklar istiqomat qiladigan hududlarda tuya deyarli bo'lmagani uchun maqolning "Uyurni shamol uchirsa, Do'ppingni osmonda ko'r." [2;200] shakli ko'p qo'llanadi.

Dushman o'lar, do'st qolar,  
O'sma ketar, qosh qolar. [2;47]

Maqolda qo'llangan "o'sma" leksemasining uzun cho'zinchoq to'q yashil bargli, krestgullilar oilasiga mansub ikki yillik o'simlik semalari bor. [3;195] U o'zbek qiz va ayollarining qoshlarini bezab turuvchi, milliy pardoz vositasi hisoblanadi. Qadimdan o'sma qo'yish urf bo'lgan hamda qizlarning qoshiga qo'yilgan o'sma qanchalik qora uchishi o'sha qizning otasi qizini qanchalar yaxshi ko'rishini bildirgan. O'sma o'zbek xalqining hayot tarziga shu darajada kirib borganki, hatto uni yuvib tashlab bo'lgach o'sha zahoti qaytadan qo'ygan qiz ikki marta turmush qiladi deyilgan. Milliy ligimizni aks ettiruvchi vositalardan biri bo'lgan o'sma faqat o'zbek qiz-yu ayollarini uchun ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolda aynan "o'sma" leksemasini qo'llanishiga sabab uni qoshda ko'p vaqt turmasligidir. Qizlar qoshiga qo'yilgan o'sma tez fursatda o'chib ketib, qoshning o'zi qolishi, dushman o'lib, do'st qolishiga qiyoslangan.

Temirchi taqaga yolchimas,  
Bo‘zchi — *belboqqa*. [2;100]  
Bo‘zchi *belboqqa* yolchimas,  
Kulol — mo‘ndiga. [ 2;182]

Berilgan maqoldan o‘rin olgan “ belbog“ “ leksemasi belga bog‘lanadigan to‘rtburchak ro‘mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq, qiyiqcha semalaridan tashkil topgan. [3;279] O‘zbekning mard yigitlari uchun mo‘ljallangan milliy kiyim turlaridan biri. Milliylikni aks ettirish xususiyatiga egaligi uchun ham ushbu leksema muqobilsiz leksika namunasidir. Maqolda kishining o‘zida bor buyum yoki mahsulotga o‘zi yolchimasligiga doir ma’no aks etgan. Ya’ni temirchi, bo‘zchi va kulollar shu hunar orqali kun kechirishi sabab ham bunday mahsulotlarni o‘z oilasiga orttira olmaydi. Aynan shu holat ko‘plab hunar egalarida uchrab turadi.

*Arafa* kuni yolg‘on gapirganning  
*Namoz* kuni yuzi qora. [2;106]

Muqobilsiz leksika boshqa tilga o‘zlashtirilganda ularga ekzotik leksika (ekzotizmlar) deyiladi. Ekzotizmlar va etnografizmlar o‘zga madaniyatning ramzlari sanaladi. [ 1;28] Ushbu maqolda “arafa” hamda “namoz” leksemalari ekzotizm hodisasiga misol bo‘la oladi. Chunki “arafa” leksemasi arab tilidan kirib kelgan. So‘zning ma’nosи arabcha – bilmoq, tanimoq, ma’rifat hosil qilmoq. Hijriy-qamariy yil hisobi bo‘yicha 12-oy (Zilhijja) 9-kunining nomi. Hayitdan oldingi kun ham Arafa deb nomlanadi. Shundan kelib chiqib xalqlar orasida tantanali voqealar va bayramlardan oldingi kun va muddatni ham Arafa deb nomlash odatga aylangan. O‘zbek tili leksikasiga ham bu so‘z o‘zgarishsiz o‘z holicha qabul qilingan. “Namoz” so‘zi fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, muslimmonlardan kuniga besh mahal qilinadigan ibodatlar majmuyi va ularning har birini anglatuvchi leksik birlik. Bu so‘z ham o‘zbek tiliga hech qanday tarjimasiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tgan. Maqol orqali yolg‘on gapning umri qisqa bo‘lishi va tez orada fosh bo‘lishi uqtirilgan. Malumki, arafa kunining ertasiga Hayit namoziga boriladi. Arafa va Hayit namozi orasidagi muddat qisqa. Yolg‘on gapirgan insonning yuzi aynan qora rangga qiyoslanishi ham olamning lisoniy

manzarasini o‘zbek xalqi qanday qabul qilishini ko‘rsatadi. Qadimdan xalqimizda qora rang motam, ko‘ngilsizlik kabi salbiy voqeliklar yomon, yovuz shaxslarga tegishli illarlarni izohlash uchun qo‘llangan. Shuning uchun ham yolg‘on gapirgan insonning yuzi qora bo‘lib, xalq orasida izza bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, lingvokulturologiya bo‘limi tarkibida o‘rganiladigan birliklar har bir xalq madaniyati hamda yashash tarzidan darak beruvchi tushunchalar hisoblanadi. Bunday leksemalar ortidagi ma’no qirralarni anglash orqali xalqlar hayotidan muhim o‘rin egallagan voqeliklardan ham xabardor bo‘lish mumkin. Buni bilish orqali bizga ma’lum yoki noma’lum bo‘lgan tushunchalar haqida bilimga ega bo‘lishimiz, biz kundalik hayotda qo‘llaydigan o‘xshatish hamda qiyoslashlar o‘zga xalqlarda qanday holatda namoyon bo‘lishidan xabardor bo‘lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh. Usanova Lingvokulturologiya T.: 2019
2. O‘zbek xalq maqollari T.: “Sharq” 2005
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati T.: “O‘zbek milliy entiklopediyasi” 2006
4. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati T.: “O‘qituvchi” 1978
5. D. Xudoyberanova Matnning antroposentrik tadqiqi T.: “Fan” 2013
6. N.Mahmudov Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish T.: 2015

## “BONU” ROMANINI LINGVOKULTUROLOGIK JIHATDAN TAHLILI

Tursunova Navro‘zaxon Ergashboy qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

### ANNOTASIYA

*Ushbu maqolada o‘xshatish turlari haqida so‘z yuritilgan. Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida aks etgan o‘xshatishlar izohlangan. Asardan parchalar keltirilib, tahlil qilingan. Lingvokulturologiya terminlaridan ham foydalaniłgan.*

**Kalit so‘zlar:** individual-muallif o‘xshatishlari, turg‘un o‘xshatishlar, etalon, idioma, sema, leksema, allyuziv kosmonim, antropomorfizm, gender metafora.

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье говорится о типах сравнения, в романе Икбала Мирзы “Бону” Выдержки из произведения цитируются и анализируются. Используются лингвистические термины.*

**Ключевые слова:** индивидуально-авторские сравнения, устойчивые сравнения, эталон, фразеологизм, сема, лексема, аллюзив-космоним, антропоморфизм, гендерная метафора.

### ANNOTATION

*This article talks about the types of similes. The similes in Iqbal Mirza’s novel “Bonu” are explained. Excerpts from the work are cited and analyzed. Linguistic terms are used.*

**Key words:** individual-author, similes, stable similes, standard, idiom, sema, lexeme, allusive cosmonym, anthropomorphism, gender metaphor.

“О‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi. Nutqning emotsiyal-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. О‘xshatishlarning ikki turi bor: 1) Infividual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) Umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi”. [1,30] Iqbol Mirzo “Bonu” romanida ishq- olov, go‘zal qiz- pari va hur, umr- oqar suv, jon- qush kabi umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlardan foydalangan.

Yuqorida mulohaza yuritilgan umumxalq yoki turg‘un(doimiy) o‘xshatishlar bilan bir qatorda Iqbol Mirzo “Bonu” romanida individual-muallif o‘xshatishlaridan ham unumli foydalangan. “Bonu” romanidagi qahramonlar holati, ichki kechinmalari, hayot tarzi, dunyoqarashi, narsa va tushunchalarning ko‘rinishi bir qator o‘xshatishlar orqali ifodalangan. Bu o‘z o‘rnida Iqbol Mirzoning badiiy-poetik talqini, badiiy didi mahsuli sifatida yuzaga kelgan va asarning badiyligiga ta’sir ko‘rsatgan.

Adib o‘xhatish etalonini atrof-muhitdan olib, tabiatdagi fizik qonuniyatga mutanosib tarzda individual o‘xhatish hosil qilgan. Jumladan, “Bonu” romanida armon – zil toshga qiyoslanadi. Asarda keltirilishicha: “Armon zil toshdek bo‘lgani uchun ham dil tubiga cho‘kadi deydilar... Toshlari tog‘dek qalashib ketgan yurakni nima deb atash mumkin?” Bu o‘rinda armon zil toshdek deyilib, individual-muallif o‘xhatishi hosil qilingan. Ma’lumki, zil so‘zi yerdan uzib bo‘lmaydigan darajada og‘ir narsa yoki yukka nisbatan qo‘llaniladi. Lug‘atda bu o‘xhatish ”zilday” shaklida berilib, “og‘ir”(juda og‘ir), “azobli” semalari orqali izohlanadi.[2,88] Unda “og‘ir” semasining orttirma darjasи ko‘rinadi. Armon zil toshdek o‘xhatishi orqali adresant o‘z asarining bosh qahramoni Bonu hayotining fojiali sahifalarini, uning dil iktiroblarini adresatlarga yetkaza olgan. Armonni toshga qiyoslash an‘anaviylik kasb etadi, uni zil toshga mengzash shu bilan bir qatorda fizik qonuniyatga xos ravishda zil toshning dil tubiga cho‘kishi erkin, muallif-individual o‘xhatishining asl namunasi hisoblanadi. “Tadqiqotlarda, bu xildagi o‘xhatishlarda asos ham, timsol ham, odatdan tashqari yoki ba’zida asosning an‘anaviy bo‘lishi ta’kidlanadi”.[3,23]

Romanda qalamga olingan qahramonlar sodda qishloq kishilari, samimiy, dilkash insonlar bo‘lgani uchun ham muallif tomonidan original individual-o‘xshatish namunalarini qo‘llanilgan. Asar bosh qahramoning onasi qishloq kutubxonachisi bo‘lib ishlagani uchun Bonuning bolalik kunlarining ko‘p qismi ana shu kutubxonada o‘tardi. Shu boisdan ham kutubxonadagi mitti do‘stlari u uchun qadrli bo‘lgan. Iqbol Mirzo ularga ya’ni Bonuning mitti do‘stlari – sichqonchalarga nisbatan ajib o‘xshatish keltirgan. Asarda yozilishicha, “Men oyoq uchida ularga yaqinlashsam, chiyillashib pol kovagidagi inlariga urib ketishar, bir muddatdan so‘ng sedanaday qop-qora ko‘zchalarini yaltiratib, mo‘ralab qarashardi”. Qishloq kutubxonasidagi sichqonchalarning ko‘zi uchun sedana leksemasi o‘xshatish etaloni sifatida berilishi kutilmagan qiyosni yuzaga keltirgan. Boshqa asarlarda uchramaganligi uchun ham ajralib turadi, shu bilan bir qatorda xotirada muhrlanib qoladi. Romanni o‘qish davomida asosan qishloq hayotiga oid tasvirlar keltirilgani uchun ham tabiat hodisalari,yillar, fasllar, oylar, kunlar almashinuviga doir individual- muallif o‘xshatishlari hosil qilingan. Asarda shunday yozilgan:” Shu tariqa kunlar imillab, oylar sudralib, yillar chopib o‘taverdi”. Kunlarning o‘tishiga nisbatan imillab ravishdoshi, oylar almashinuviga nisbatan sudlarib ravishdoshi, yillar o‘tishiga nisbatan chopib ravishdoshi qo‘llanishi orqali antropomorfizm yuzaga kelgan.” Lingvokulturologiyaning termini hisoblangan bu hodisa hayvonlar, tabiat hodisalari, mifologik mavjudodlar va predmetlarga odamga xos ruhiy va jismoniy belgilarni ko‘chirishdir”.[4,21] Iqbol Mirzo qalamiga mansub ijod namunasida bunday o‘xshatish turlarining bo‘lishi, shubhasiz, yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi.

Asarni o‘qish jarayonida muallif-individual o‘xshatishlari e’tiborimizni tortishi tabiiy. O‘zaro aloqadorligi bo‘limgan leksemalarni mohirona qo‘llab, takrorlanmas qiyoslash hosil qilingani va Zuhro yulduzi o‘xshatish etaloni sifatida tanlab olingani romanni badiiy qiymatini oshirgan. Asarda keltirilishicha:”... Zuhro yulduzidek lo‘ppi paxtalarni chaqqon terimchi qo‘llar etaklarga qamab, borgan sari egatlar shumshayib, ko‘lanka tushganday xira tortib qolgani kabi bu oq-oydin kunlarim omonat ekani

xayolimning bir chetida ham yo‘q edi”. Zuhro yulduziga lo‘ppi paxtalarni qiyos etish allyuziv kosmonim hodisasini yuzaga keltirgan. O‘zbek tilida Zuhro yulduziga bog‘liq an‘anaviy o‘xshatishlar aksar manbalarda uchraydi. Bu o‘xshatish “go‘zal”, “yorqin”, “to‘lin” kabi semalari bilan namoyon bo‘ladi. Zuhro yulduzi o‘xshatish etaloni sifatida ko‘pgina o‘xshatishlar uchun xizmat qiladi. Muallifning badiiy mahorati shundaki, Zuhro yulduzi o‘xshatish timsolidan lug‘atlardagi semalaridan tashqari, yangi o‘xshatishni hosil qilgan.

“Umid ham quyoshga o‘xshaydi, botar chog‘i hamma yoq zulmatga cho‘madi, endi hayot tugadi degan o‘y ko‘rshapalakday aylanib qoladi.” Ushbu parchada o‘xshatish etaloni sifatida quyosh sememasi olingan, buning sababi shuki, uning tarkibida “yulduz”, “issiqlik tarqatuvchi osmon jismi”, “Yer sayyorasidagi hayot manbayi” kabi semalar mavjudligidadir. Lug‘atlarda yoruq, porloq, issiq ma’nolari keltirilgan.[2,300] Inson hayotidagi umidni aynan Yer sayyorasidagi hayot manbayi hisoblangan Quyoshga mengzab, allyuziv kosmonim hodisasi bilan bir qatorda yaxlit o‘xshatish yuzaga keltirilgan.

“Abdulla Qahhorning Qobil bobosiga o‘xshab tuman hokimiga, undan keyin viloyat boshchilariga chiqdim”. Bu o‘xshatish har bir asar mutolaasiga kirishgan kitobxonning e’tiborini tortishi tabiiy, albatta. Axir undagi o‘xshatish etaloni bo‘layotgan Qobil bobo obrazi Abdulla Qahhor qalamiga mansub “O‘g‘ri” hikoyasining bosh qahramoni hisoblanadi. Romanning bosh qahramoni Bonuning nohaqliklardan zada bo‘lib, turli idora va tashkilotlarga muroaat qilishi Qobil bobo tushgan holat bilan aynan o‘xhash. Yaxlit o‘xshatish yuzaga kelgani uchun ham o‘xshamoq fe’li qo‘llangan. Bu parcha Iqbol Mirzoning o‘xshatish uslubi boshqa ijodkorlardan farqlanib turishini yaqqol isbotlay olgan. Bunday parchalar asarning ko‘plab o‘rinlarida uchrab turadi. “Ertakdagি ikki echkiga o‘xshab bir-birimizga yo‘l berish niyatimiz yo‘q”. Ushbu parcha yuqorida keltirilgan misolga aynan teng kela oladi. Qobil bobo etaloni “O‘g‘ri” hikoyasidan olingan bo‘lsa, ikki echki etaloni “Ikki echki” hikoyasidan olingan. Bu hodisa allyuziya manbasi hisoblanadi.

“Qo‘llarim beshpanja chanoqlar changalidan momiq paxtani beixtiyor yilib, belimga bog‘langan etakka shitob tashlab borardiyu, boshim uzra asalaridek bir bayt aylangani aylangan edi”. – “Uning gaplari miyyamda qovog‘aridek betinim g‘ong‘illardি: eski peslardan...” “o‘n ikki yil” “. Asarning turli qismlaridan o‘rin olgan ushbu parchalarni o‘zaro taqqoslab, ulardagi o‘xshatishni tahlil qilish yanada qulayroq deb hisoblaganim uchun ham yonma-yon tarzda joylashni ma’qul topdim.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzoning “Bonu” romanida birinchidan, an’anaviy - day, -dek, kabi, o‘xhash singari vositalardan foydalangan holda o‘xshatish qurilmalari hosil qilingan bo‘lishiga qaramay, bu o‘xshatishlar o‘ziga xosligi va boshqa ijodkorlarda uchramasligi, shu muallifgagina xosligi bilan ajralib turadi. Ikkinchidan, muallif asarga olib kirgan o‘xshatishlarini kundalik turmushdan, tabiatdan, hayvonlardan olgan va kutilmagan o‘xshatish namunalarini hosil qilgan. Bu uning so‘z qo‘llash mahorati yuqori darajada ekanligidan darak beradi. Uchinchidan, nutq birligi hisoblangan birgina gapda birdan ortiq o‘xshatish etalonlari va o‘xshatish turlari aks etgani muallif badiiy mahoratini ko‘rsatgan.

### *Foydalilanilgan adabiyotlar:*

1. Sh.Usmanova *Lingvokulturologiya* T.: 2019
2. N.Mahmudov, D.Xudoyberganova *O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati*. T.: “Ma’naviyat” 2013
3. G.U. Jumanazarova *Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (leksik-semantik, lingvostilistik tahlil)*. Filol. Fan. Dok. (DSc) dis – T.: 2017
4. D.Xudoyberganova. *Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati*. T.: “Turon zamin ziyo” 2015 21-bet
5. M.Yo ‘ldoshev. *Cho‘lpon so‘zining sirlari*. T.: “Ma’naviyat” 2002
6. Iqbol Mirzo. *Bonu* T.: “Sharq” 2020

## KOMSTOK QURTINING BIOEKOLOGIYASI, TARQALISHI VA ZARARI

q.x.f.f.d. dotsent: **Isashova.U.A**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

[isashovaumida@gmail.com](mailto:isashovaumida@gmail.com)

tayanch doktorant: **Imomaliyev.E.N**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

[eraliimomaliyev2002@gmail.com](mailto:eraliimomaliyev2002@gmail.com)

**Annotatsiya:** Zararkunandalar orasida O‘zbekistonda chegaralangan holda tarqalgan, o‘ta havfli bo‘lgan, ichki karantin organizmlar ro‘yhatiga kiritilgan zararli hasharotlar mavjud. Bu kabi zararkunandlarning yanada ko‘proq hudularga tarqalishini oldini olish uchun hasharotning biologiyasini hamda tarqalish arealini bilish muhim hisoblanadi. Quyida shunday hasharotlardan biri bo‘lgan Komstok qurtining biologiyasi, tarqalishi hamda zarari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Karantin, zararkunanda, entomofag, lichinka, erkak, urg‘ochi, avlod.

## BIOECOLOGY, DISTRIBUTION AND DAMAGE OF THE COMSTOCK WORM

**Abstract:** Among the pests, there are harmful insects that are distributed in a limited manner in Uzbekistan, are extremely dangerous and are included in the list of internal quarantine organisms. In order to prevent the spread of such pests to more areas, it is important to know the biology and distribution area of the insect. Below is information about the biology, distribution and damage of one such insect, the Comstock worm.

**Key words:** Quarantine, pest, entomophagus, larva, male, female, offspring.

**Kirish.** Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'rni va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir Respublikamiz qishloq xo'jaligini texnik va texnologik yangilash maqsadida 2015 yilda 9,7 ming hektar maydonda yangi intensiv bog'lar tashqil etilib, 2746,2 ming tonna meva maxsulotlari etishtirildi. Xususan 2017 yilda yangi tashqil etilgan olma bog'larining xajmi 5,2 ming hektar maydonni tashqil etgan va eksport xajmi 12% ga ortgan. Mamlakatimiz aholisini oziq - ovqat havfsizligini ta'minlash, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish kabi vazifalardan kelib chiqib, ekinlarni yetishtirishda zamonaviy ilmiy asoslangan texnologiya va vositalardan foydalanishni talab etadi. Mamlakat miqyosida har yili qo'shimcha ravishda 25-30 ming hektar bog'lar tashqil etilib, bunda olma bog'lariga katta ahamiyat berilmoqda. Ammo yetishtirish jarayonida qator muammolar vujudga kelib hosil sifati va hajmini kamaytirmoqda.

Meva mahsulotlarini yetishtirishda ayniqsa, zararunandalarini o'z vaqtida aniqlash, rivojlanish va zarar keltirish darajasini aniqlash hisobiga samarali kurash choralarini belgilash nihoyatda muhimdir.

**Mavzuning dolzarbligi.** Komstok qurti ashaddiy karantin zararkunandasini hisoblanib 300 dan ziyod o'simlik turiga zarar yetkazadi. Shular orasida anor, olma, behi, nok, shaftoli kabi mevali daraxtlarga qattiq zarar keltiradi. Hozirgi kunda mevachilik O'zbekistonning asosiy eksport maxsuloti hisoblanadi shuning uchun eksportbop mevalarning xosildorligi hamda sifatini yaxshilash uchun to'g'ri agrotexnika bilan birgalikda ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish dolzarb masaladir. Demak, yetishtirilayotgan mevali bog'larda tarqalgan komstok qurti bioekologiyasi, zararini o'rganish va karantin tadbirlarini ishlab chiqish hamda meva hosildorligiga ta'sirini ilmiy asoslash nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi. O'zbekistonga kirib kelgan vaqtdan beri 79 yil o'tgan bo'lsada shu yillar mobaynida

karantin chora-tadbirlari qat’iy olib borilishiga karamasdan tarqalmokda. Bugungi kunda MDH davlatlarida komstok qurti barcha mintaqalarga keng tarqalib ketish xavfi mavjud. Komstok qurti tarqalmagan xududlarni undan muhofaza qilish uchun ko‘chatlarni, o‘simplik mahsulotlarini kiritish va chiqarishida barcha karantin qoidalariga amal qilish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini keng ko‘lamli olib borish lozim.

**Biologiyasi:** Komstok qurtining erkak va urg‘ochi zotlari tashqi tuzilishi bo‘yicha keskin farqlanadi. Urg‘ochisi yassi shaklli, qanotsiz, kam xarakat va ustti oq mumsimon dog‘lar bilan qoplanib 5 mm uzunlikda bo‘ladi. Tanasining yon tomonida 17 juft mumsimon o‘sintalari bor, dum qismi sezilarli darajada cho‘zinchoq bo‘ladi. Mo‘yovlari sakkiz bo‘g‘inli bo‘ladi. Komstok qurtining erkagi 1 juft shaffof qanotli, serxarakat, rangi kizg‘ish-jigarrang tusda, uzunligi 1-1,5 mm, mo‘yovlari 10 bo‘g‘inli Tuxumining uzunligi 0,3 mm, bir tomonidan toraygan oval shaklda. Rangi sariq-zarg‘aldoq bo‘lib, yupqa oq g‘ubor bilan qoplangan Komstok qurti tanasining kattaligi va dum qismining uzunligi bilan bir-biridan farq qiluvchi uchta lichinkalik yoshini o‘taydi. O‘zbekistonda komstok qurti bir yilda uch marta nasl beradi, qisman to‘rtinchisi marta xam nasl tarqatadi. Lekin sovuq tushishi bilan to‘rtinchisi nasl qirilib ketadi. Komstok qurti tuxum bosqichida qishlaydi. Bir urgochi qurt 250 dan 600 donaga qadar sarg‘ish-zarg‘aldok tusdagi tuxumni mumsimon oq qopchiqqa tashlaydi. Bu qopchiqni o‘rtachi qurtning mum ajratuvchi bezlari yasab chiqaradi. Uchinchi nasl sentyabr-dekabr oylarida qishlash uchun tuxum tashlaydi. Bu mumsimon qopchiqlar yozdagilariga nisbatan sertuk va zichroq bo‘ladi. Bir avlodining rivojlanishi xaroratga karab 42 kundan 65 kungacha davom etadi. O‘zbekiston sharoitida komstok qurti birinchi avlodining rivojlanishi aprel oyining boshidan may oyining oxirigacha davom etadi, ikkinchi avlodi may oyining o‘rtalaridan iyun oyining boshigacha, uchinchi avlodi esa iyul oyining boshidan sentyabr oyining urtalarigacha davom etadi.

**Tarqalishi:** Komstok qurtining vatani Yaponiya va Xitoy davlati bo‘lib, entomolog S.Kuvan 1902 yilda bu qurtni ta’riflaydi va Amerikalik entomolog sharafiga Komstok nomini beradi. Komstok qurti to‘g‘risida ko‘p yillar mobaynida adabiyot manbalarida

ma'lumotlar berilmagan, 1920 yilga kelib matbuotda uning yangi o'choqlari paydo bo'lishi to'g'risida xabarlar tarqala boshladи. Hozirgi vaqtda komstok qurti Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerika va yevropaning ko'pgina mamlakatlarida tarqalgan. MDXda komstok qurti birinchi marta 1939 yilning avgust oyida O'rta Osiyo ipakchilik institutining Toshkent shahri yaqinidagi Jarariq tajriba xo'jaligida Yaponiyadan keltirilgan yirik bargli tut ko'chatlarida aniqlandi. O'zbekistonda komstok qurti Toshkent viloyatining butun sug'oriladigan qismiga, so'ngra Respublikaning boshqa viloyatlariga xam tarqalib ketdi. Komstok qurti 1947 yilda Farg'ona viloyatida topildi. Bu yerda qurtlar Toshkent viloyatidagiga qaraganda tezroq tarqaldi. 1953 yilda butun Farg'ona viloyati bog'larining, daraxtzorlarining ko'pligi, tutlarining qalin o'tkazilishi va ariqlar komstok qurtning tez tarqalishiga yordam berdi. 1953-1957 yillarda Andijon viloyatining barcha tumanlarida komstok qurti juda tez tarqaldi. Ushbu zararkunanda 1957 yil Jizzax viloyatining Zomin, Samarqand viloyatining Ishtixon tumani va Samarqand shaxrida, 1960 yil esa Buxoro, Navoiy viloyatlari va 1961 yilda Surxondaryo viloyatining Avg'oniston bilan chegaradosh tumanlarida tarqalgan. Xorazm va Urganchda 1962 yilda, Qoraqalpog'iston Respublikasi xududlarida 1964 yillarda paydo bo'ldi. Barcha komstok qurti tarqalgan yerlarda bu hasharotning tutga yetkazishi mumkin bo'lgan zarari aholiga ayon bo'lmoqda. Shuning uchun ichki karantin chorralari orqali bu hasharotni mintaqamiz bo'ylab yanada tarqalishining oldini olish talab etiladi. O'zbekistonda ushbu havfli zararkunanda va unga qarshi kurash tadbirlari to'g'risida O.A.Sulaymonov, K.Bobobekov, T.Islomov, G.T.Dustmurodova, D.T.Dustmatova, J.N.Yaxyoyevlar tavsiyanoma hamda o'quv qo'llanmalar nashr ettirganlar.

**Xulosa.** Komstok qurti (*Pseudococcus comstoci* Kuw) - O'zbekistonning ko'pgina hududlarida mevali hamda manzarali daraxtlarga zarar keltiradi. Ushbu zararkunanda ashaddiy ichki karantin hasharot bo'lib zarari qarshi kurash ishlari olib borilmaganda juda ham og'ir oqibatlarga olib keladi. Birinchi navbatda zararkunandani tarqalishi yangi hududlarga yetib bormasligi uchun karantin tadbirlari olib borilsishi maqsadga muvofiq. Zararkunanda tarqalgan hududlar esa zudlik bilan zararlanish

darajasi aniqlanib kurash choralari tanlanadi havf past darajada bo‘lganda pseudofikus entomofagi bilan kuchli zararlangan holatda ta’sir etuvchi modddasi dimetoat, imidakloprid, malation, klotianidin bo‘lgan kimyoviy insektitsidlar bilan ishlov berish tavsiya etiladi.( Xujaev SH.T.)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анорбаев А.Р, Болтаев Б.С., Камилов Ш.Г., Нуралиев Х.Х. «Меры борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур» Ташкент - 2016.
2. Архангельская А.Д. К фауне червецов и щитовок (Coccidae) Туркестана// труды Туркестанского научного общества, т.1. - Ташкент - 1923 - С 159-226
3. Атанов Н., Гуммель Э. - Ацекол против восточной плодожорки // Сельское хозяйство Узбекистана. - 1987. №3. - С.42-43
4. Kimsanboev X.X. va boshq.«O‘simpliklarni kimyoviy himoya qilish». Toshkent, «O‘qituvchi», 1997.
5. Murodov S.A. «Umumiy entomologiya» Toshkent. 1987
6. Муродов Б.Э., Яхёев Ж.Н. "Карантинный вредители внутреннего карантина Республики Узбекистан" Журнал, "Образование и наука в России и за рубежом" 2017-й, №3(32), 32-36 с.
7. Murodov B.E., Sulaymonov O.A., Yaxyoev J.N. "O‘zbekiston Respublikasida chegaralangan holda tarqalgan va chetdan kirib kelishi xavfi bo‘lgan karantin zararkunandalar" uslubiy qo‘llanma Toshkent - 2017.
8. Muhammadiev B.Q., Murodov B.E., Sulaymonov O.A.. "Pseudaphicus maculipenis-psevdofikusni laboratoriya sharoitida ko‘paytirish bo‘yicha qo‘llanma" Toshkent - 2012
9. Xujaev SH.T., "O‘simpliklarni zararkunandalardan uyg‘unlashgan ximoya qilishning zamonaviy usul va vositalari" Tashkent - 2015.
10. Sheraliev A., Ulmasboeva R.Sh. "Qishloq xo‘jalik o‘simpliklarining karantini". O‘qituvchi 2008
11. Xujaev SH.T. "Entomologiya, qishlok xo‘jalik ekinlarini ximoya qilish va agrotoksikologiya asoslari" Toshkent 2013-yil.

**OILADAGI FARZAND TARBIYASIDA OTANING TUTGAN O'RNI****S. Mirzayev**

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika kafedrasи o'qituvchisi

**Mahkamova Nozima**

Pedagogika-psixologiya yo'nalishi 4-bosqich talabasi

*Annotatsiya. Maqolada o'zbek oilalarida farzand tarbiyasida otaning o'rni, burchi va mas'uliyati, farzand har bir ishda otalarga taqlid qilishlari, tarbiya vaqtida ota-onaning shaxsiy namuna bo'lishlari, shuningek, oilada tarbiya davomida insonparvarlik fazilatlariga alohida e'tibor berish kerakligi haqida fitkr yuritiladi.*

*Kalit so'zlar: oila, ota-onsa, farzand tarbiyasi, mehr-muhabbat, ma'naviy-axloqiy o'rnak ko'rsatish, keksa avlod, urf-odatlar, fazilat.*

**KIRISH**

Oila – kishilarning nikoh yoki qon – qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruh. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir – biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo'lmasligi hamda o'z navbatida oilaning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rindi.

Islom dinida farzandlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning dunyoga kelishida, ruhan, jismonan va aqlan sog'lom bo'lishida, har tomonlama barkamol avlod bo'lib yetishishida asosiy mas'uliyatni ota-onaning zimmasidagi burch etib belgilab berilgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, farzandlarga tarbiya berishda ota o'zining zimmasidagi farzandning haq-huquqini bilib, uni ado qilmoqligi lozimdir. Aksincha ado qilmasa farzand yoshligida shirin bo'lsada, voyaga yetgandan keyin uning mevasi

achchiq bo‘lishi haqida muqaddas dinimizdagi ko‘rsatmalar, tarbiyaviy asarlarda hayotiy misollar bilan ta’kidlab o‘tilgan. Shuning uchun Payg‘ambarimiz (sallollohu alayhi vasallam):

*"Farzandning haqqi otada uchtadir: tug‘ilganda chiroyli ism qo‘yish, aqli kirganda Qur’onni o‘rgatish va voyaga yetganda oila qurishga tayyor bo‘lganda uni uylantirib qo‘yishdir"*, dedilar.

Farzand oila muhitida katta bo‘lar ekan, uning bari xulq-atvori, atrof – muhitga, oilaga bo‘lgan munosabati, kelajakda o‘zining oila qurishi, farzandlar ko‘rishi haqidagi fikrlari shakllanib boradi. Agar oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya’ni bolada oilaga, ota – onaga, keksalarga hurmat, o‘zaro yordam kabi hislatlar shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o‘zi ham farzandlarini huddi shu tarzda tarbiyalashga intiladi. Bunday oilalarda „Baxtlilik darajasi „, yuqori bo‘ladi. Chunki Inson o‘ziga ato etilgan baxtning to‘rtidan uch qismini oiladan choraktaga yetar-yetmas qismini boshqa narsalardan topadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bola dunyoga kelib birinchi bo‘lib ko‘rgan kishilari-onasi, otasi, aka-opalari bo‘ladi. Qarindoshlarning mehr-muhabbati bolaga chaqaloqligidan singadi. Ota-onada uchun butunlay g‘amxo‘r, rahnamo bo‘lib gavdalaniadi va bola ularning nasihatni, tarbiyasiga ishonch bilan quloq soladi. Bola ota-onaga alohida ishonch bilan qaraydi. Bola qalbi-oilaning surati. Unda oilaning ichki mohiyati aks etadi. Agar ota-onada manfaatparast, ta’magir kishilar bo‘lsa, ular bu illatlarini oyda-yilda ko‘radigan do’stlaridan yashira oladi. Lekin o‘z farzandlaridan yashirish nihoyatda qiyin. Bola yosh davrida ko‘p qiziqadigan va juda taqlidchi bo‘ladi. Bu davrda ota-onada va boshqa oila a’zolari o‘zaro madaniyatli, yaxshi insoniy muomalada bo‘lishlari katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek oilasi, xonadoni va farzand tarbiyasi o‘ta muhim sanaladi. Tarbiya san’ati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli. Ba’zilarga esa juda oson tuyuladi. Bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik tanish bo‘lsa, unga shunchalik tushunarli va oson bo‘lib tuyuladi. Hamma tarbiya sabr-toqatni talab qiladi. Ayrimlar buning uchun tug‘ma qobiliyat va malaka, va ko‘nikma kerak deb

o‘ylaydilar. Lekin bundan tashqari yana maxsus bilimlar ham kerakligi haqida ishonch hosil bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, inson ona qornidan yaxshi yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi. U birday tug‘iladi. Yaxshi yoki yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-onas, oila, mahalla va jamiyatdan o‘rganadi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) otaning farzandiga qiladigan moddiy ta’midotidan ma’naviy ta’minati ustun turishini ta’kidlab shunday marhamat qilganlar: “Hech bir ota o‘z farzandiga go‘zal odobdan ham ortiqroq hadya bera olmaydi” (Termiziy rivoyati).

Farzand tarbiyasida otaning ijtimoiy roli juda ham katta bo‘lganligi sababli, Xalqimizda dilbandlarini go‘zal odob-axloq ila tarbiyalagan otalarimizning farzandlari “Otangga Rahmat”, “Tarbiya bergen otangga rahmat” kabi maqtovlarni olib kelishadi.

O‘zbeklarda oilaning rahbari ota hisoblanib, u oilani moddiy jihatdan ta’minalashga mas’uldir. Otaning rahbarligi to‘g‘risida Qur’oni karimda "**Erkaklar xotinlari ustidan rabbardurlar**" deyilgan. Oyat mohiyatini tahlil qiladigan bo‘lsak, oiladagi moliyaviy masalalar, chetdan bo‘ladigan xurujlardan uni himoya qilish otaga yuklatilmoqda. Nafaqat rahbar, balki ota-oila posboni. Ota bor xonodon charog‘on, bolalar yuzida tabassum, ona qalbida osoyishtalik. Shuningdek, Alloh taolo shunday buyuradi. "**Ey iymon keltirganlar o‘zingizni va ahli ayollariningizni yoqilg‘isi odamlar va toshlardan bo‘lgan o‘tdan saqlang**" (Tahrim surasi 6–oyat). Ahli ayolini, farzandlarini iymonli qilib tarbiyalash oila boshlig‘ining Alloh taolo oldidagi burchi ekanligiga yuqoridagi oyatga keltirilgan.. Qachonki otalar farzandlarining oldidagi burchlarimizni ado etadigan bo‘lsa farzandlari o‘zlariga itoat etadigan, dinga xizmat qiladigan, el-u yurtni rivojiga hissa qo‘shadigan farzandlar bo‘lib yetishadi.

Farzandlar mas’uliyatida misollar, ayniqsa, otaning roli muhim o’rin tutadi. Shuning uchun otalar majburiyatlariga ehtiyyot bo‘lishlari kerak. Otalar farzandlaridan nimani xohlashlarini aniq va qisqa tushuntirishlari kerak, masalan, “yordam bersang, yaxshi bo‘ladi”, “mumkin”, “sening qo‘lingdan keladi” va hokazo, iboralarni ishlatishingiz shart emas. Agar u o‘z mas’uliyatini bajarmasa, besh daqiqadan so’ng yana eslatiladi,

agar u buni takrorlamasa, ota o'z zimmasiga olishi mumkin. Agar ota mehribon bo'lib, bolaning mantiqiy istaklariga ijobjiy javob bersa, keyingi safar bola pushaymon bo'lib, ijobjiy javob qaytaradi.

Majburlash va bosimni mas'uliyat hissini shakllantirish uchun ishlatmaslik kerak, chunki bu ota va bola o'rtasida ziddiyat va norozilikni keltirib chiqaradi, shuningdek, bu tuyg'uning oldini oladi va uni orqaga so'radi. Oilada bola jismonan, aqliy va axloqiy jihatdan kamol topadi. Otalar farzandlariga teng munosabatda bo'lishlari, ularning hayoti, ta'lif va tarbiyasi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishlari kerak. Shu bilan birga, ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalash va o'qitish uchun mas'uldirlar, chunki bolalarni tarbiyalash otalarning huquq va majburiyatları guruhiга kiradi va bu asosiy qonunimiz bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi. Jumladan, Konstitutsiyamizning uchinchi bo'lim, XIV bobi «Oila» deb nomlangan bo'lib, undagi 63-66 moddalarda oilaning ijtimoiy-tarixiy roli, ahamiyati huquq va burchlari hamda ahamiyati qonuniy asoslarda aniq-ravshan belgilab berilgan. Bu moddalarda oilaning «jamiatning asosiy bo'g'ini» ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga egaligi, oila qurishga asos bo'luvchi nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanishi (63- modda), ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi (64- modda), davlat va jamiyat yetim bolalarni yoki otaonalari vosiyligidan mahrum bo'lgan farzandlarni o'z qaramog'iga olishni, shuningdek, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantirishi (64- modda), farzandlar ota-onalar nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qatoiy nazar qonun oldida teng ekanligi (65-modda), onalik va bolalikning davlat tomonidan muhofaza qilinishi (shu modda) kabi g'oyat muhim masalalarga huquqiy maqom berildi. Ayniqsa, 66-moddadagi «Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota -onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar» kabi fikrlar jahon qonunchiligidagi o'ziga xos yangi hodisa sifatida e'tirof etildi. Yoshlar har bir millat va davlatning buyuk intellektual va jismoniy salohiyati bo'lib, har bir davlatning kelajagi ularning qo'lida bo'ladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, insonlar farzandli bo‘lishdek baxtga erishish bilan birga otalik vazifasini va mas’uliyatini ham to‘la anglab yetishlari lozim deb o‘ylayman. Chunki jamiyatimizning baxtli kelajagi uchun barchamiz mas’ulmiz. Bolalar - oila va jamiyatning ko‘zgusidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko‘ra o‘rnak ko‘rsatish kuchli ta’sir etadi, otalarning ko‘rsatadigan o‘rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o‘rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamroq iz qoldiradi.

Oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko‘rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to‘g‘ri o‘rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb hunari, oila a’zolarining ma’naviy-ruhiy munosabatlari katta rol o‘ynaydi. Shunisi quvonarlik, hozirda oilalarda otalarning farzand tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori kundan-kunga kuchaymoqda. Chunki, farzand Alloh tomonidan ato etilgan ulug‘ ne’mat bo‘lishi bilan birga, u otaga topshirilgan ma’suliyat hamda omonatdir. Farzandlar - kelajagimiz ekan, ularni ham jismonan, ham ruhan, ham ma’nan sog‘lom bo‘lib kamolga etkazish barchamizning asosiy vazifamiz bo‘lib qolishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADAIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. - T.:O‘zbekiston, 2017.
2. Иноғомов Ж. Оилада маънавий-ахлоқий тарбия. –Тошкент. “Маҳалла кутубхонаси”. 2015
3. Истроилов Н., Машарипова Г., Истроилов Б. Оилада бурч тарбияси-маънавий комиллик асоси.-Тошкент. “Маънавият” 2015
4. Саифназаров И., Саифназарова Ф. Ёшлар ва оила-Ватан таянчи.-Тошкент. “Таълим нашриёти”. 2018

### Internet saytlari

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Oila>
2. <https://sammuslim.uz/oz/articles/farzand-tarbiyasida-otaning-orni>
3. <https://zamin.uz/uz/hayot-tarzi/71732-farzandning-ota-ona-oldidagi-burchlari.html>
4. [file:///C:/Users/Dell/Downloads/farzand-tarbiyasida-ota-onalarning-masuliyati%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/Dell/Downloads/farzand-tarbiyasida-ota-onalarning-masuliyati%20(1).pdf)

## TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Sobirova Sojidaxon. (2023). DEVELOPMENT OF VOLITIONAL QUALITIES IN RELIGION. GOLDEN BRAIN, 1(22), 4–8.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252134"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252134</u></a>
2	<b>Asqarova Dilafruz Ibroximovna, &amp; Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TEXNOLOGIYALARI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 9–14. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252152"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252152</u></a></b>
3	<b>Qimatboyev Shavkatjon Furqatzoda. (2023). KAMERAL SOLIQ TEKSHIRUVI VA UNI O'TKAZISH BO'YICHA BELGILANGAN UMUMIY QOIDALAR. GOLDEN BRAIN, 1(22), 15–20.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252158"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252158</u></a>
4	<b>Temirov Sirojiddin Shoymardon o'g'li. (2023). CREATIVE THINKING SKILLS. GOLDEN BRAIN, 1(22), 21–28.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252167"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252167</u></a>
5	<b>Mo'minova Dilnoza Solexovna. (2023). OILADA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(22), 29–32.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252176"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252176</u></a>
6	<b>Olmosova Gulnoza, &amp; Shodmonova Muhlisa. (2023). BAT SILLA BAKTERIYASINING, TABIATDA TARQALASHI VA O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 33–36. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252184"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252184</u></a></b>
7	<b>Amonov Sardor Zamon o'g'li, &amp; Yo'ldosheva Nilufar Yusufovna. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNI YUKSALTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 37–39.</b> <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.8252195"><u>https://doi.org/10.5281/zenodo.8252195</u></a>

**8**

**Azimov Azizbek Usmon o'g'li. (2023). THE CONSTRUCTION OF HYDROTECHNICAL FACILITIES AND THE ROLE OF HYDROELECTRIC POWER STATIONS IN WORLD LIFE. GOLDEN BRAIN, 1(22), 40–43. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252210>**

**9**

**Karimov Ismoiljon Ibrohimjonovich, & Jumaboyeva Zulayxo Baxtiyor qizi. (2023). YOSH TRIATLONCHI QIZLARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASINI OSHIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(22), 44–53. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252257>**

**10**

**Noriyeva Aziza Jasur qizi. (2023). FIBONACHCHI SONLARI VA MATRITSALAR ORASIDAGI MUNOSABATLAR. GOLDEN BRAIN, 1(22), 54–57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252265>**

**11**

**Sharapova Hurliman Zayrbek qizi, & Sarsenbaeva Anar Onalbay qizi. (2023). ANA TILIN OQITIW METODIKASI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 58–60. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252273>**

**12**

**Tursunova Navro'zaxon Ergashboy qizi. (2023). MAQOLLARDAGI LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLAR. GOLDEN BRAIN, 1(22), 61–65. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252337>**

**13**

**Tursunova Navro'zaxon Ergashboy qizi. (2023). "BONU" ROMANINI LINGVOKULTUROLOGIK JIHATDAN TAHЛИLI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 66–70. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252349>**

**14**

**Isashova.U.A, & Imomaliyev.E.N. (2023). KOMSTOK QURTINING BIOEKOLOGIYASI, TARQALISHI VA ZARARI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 71–75. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252356>**

**15**

**S. Mirzayev, & Mahkamova Nozima. (2023). OILADAGI FARZAND TARBIYASIDA OTANING TUTGAN O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(22), 76–81. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8252364>**